

SOHIBQIRON TAN OLMAGAN KELIN - SHODMULK BEGIM TAQDIRI

Shodmonqulova Sabriya

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti

1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15461031>

Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha Shodmulk Xotun Samarqand shahrining quyi tabaqasidan mansub hunarmand oilasida taxminan 1380 yoki 1390-yilda dunyoga kelgan. Amir Temurning suyuqli nabirasi Xalil sulton Mirzo unga oshiq bo'lib, 1404-yil unga uyulanadi. Ammo bunday "tengsiz" nikohga Amir Temur qarshilik qiladi. Lekin keyinchalik Xalil Sulton Mirzo Amir Temur tomonidan kechiriladi, Temurning Xitoyga qarshi so'nggi yurishida qo'shinning o'ng qanotiga qo'mondonlik qilish unga ishonib topshirilgan edi. Saroy Mulk xonimning shafaoti tufayli u Amir Temurga Shod Mulkning homiladorligini aytib tirik qoladi.

Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro asarida" xushsurat, yaxshi xulqli, karamli, xushta'b edi - deb ta'riflangan Xalil Sulton Mirzo Samarqand taxtiga o'tirgach saltanat boshqaruvi iplarini qo'lida mahkam tutilmadi, ketma - ket xatolarga yo'l qo'ydi. Shodmulk begim Temurning barcha beva xotinlariyu xos kanizaklarini harbiy boshliqlar va amaldorlarga in'om qilish haqida Xalil Sulton Mirzoga maslahat berib, uni ko'ndiradi. Jumladan, 1406-yilda Temurning beva xotini Tuman og'a begimni amir Shayx Nuriddinga xotinlikka beradi. Amir Temurning husnda tanho bo'lgan g'unchachisi*Ruhvar pari qismati ham shunday hal qilinadi. "Ibn Arabshohning yozishicha, Saroy Mulk xonim va To'kal xonimlarni Shodmulkning mahfiy buyrug'iga binoan zaharlab o'ldirilganlar." Chunki bu malikalar Xalil Sulton Mirzoning bu xatti - harakatlarini ma'qullamaganlar.

Amir Temur davridagi bek va amaldorlarga yetarli iltifot ham ko'rsatilmaydi. Shodmulk begimning xohishiga muvofiq, qandaydir quyi tabaqa ga mansub Bobo Turmush degan kimsa to'la huquqli vazir mansabini egallaydi. Xalil Sulton Mirzo va Shodmulk begim Amir Temurga tegishli xazinani 4 yil davomida tugatadilar. Chunki ular shu xazina yordamida qo'l ostidagi amirlar va qo'shinni ushlab turgan edilar., Xazina tugagach amirlar Xalil Sulton Mirzo hokimiyatini tan olmay qo'yadi.

Arkoni davlat o'rtasida vujudga kelgan bunday noroziliklar saltanat poydevoriga raxna solishni muqarrar edi. 1409-yil bahorida Shohruh Mirzo qo'shiqni Badhez mavzryiga kelib to'xtaydi. Ammo 1409-yil 30-mart kuni Xalil Sulton Mirzo amir Xudaydod tomonidan asir olinadi.Uning xotini Shodmulk begimni esa Shohruh Mirzoga topshiradilar. Nihoyat Xalil Sulton Mirzoni Farg'onadan O'trorga keltirib, Amir Shayx Nuriddin boshchiligida Shohruh Mirzo bilan Xalil Sulton Mirzo o'rtasida bitim tuziladi. Bitimga muvofiq, Xalil Sulton Mirzo Movarounnahr hukmronligidan voz kechadi. Buning evaziga Ray viloyatining hokimi etib tayinlanadi. Xotini Shodmulk begim esa qaytarib beriladi.

Ammo ularning Ray shahridagi hayoti ham yaxshi kechmaydi. Xalil Sulton Mirzo ruhiy tushkunlikka tushib qoladi. "Ko'p o'tmay, 1411-yil 11-noyabrda Xalil Sulton Mirzo Ray shahrida bir necha kun betob bo'lib, vafot etadi. Ayrim manbalarga ko'ra, u zaharlanib o'lgan deyiladi. Shundan so'ng eridan keyin yashashni istamagan Shodmulk begim ham zahar ichib olamdan o'tadi.

Xalil Sulton Mirzo va Shodmulk bəgimning bir-birlariga bo'lgan muhabbati shoir va dramaturg Usmon Azimni ham e'tiborsiz qoldirmaydi. Ularning muhabbatlari asosida tarixiy - dramatik qissa("Xalil Sulton") (4,135-311-betlar) yaratilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytishim kerakki, Shodmulk bəgimning temuriylar davrida tutgan o'rni hali yaxshi o'rganilmagan. Uning tarixda qilgan ishlari salbiy yoki ijobiy bo'ladimi? Baribir ham u temuriy shahzoda Xalil Sulton Mirzoni maftun etgan go'zal Shodmulk bo'lib tarixda qoldi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turg'un Fayziyev. " Temuriy malikalar" Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2013, 28-30 b;
2. Turg'un Fayziyev "Temuriylar shajarasi" Toshkent, 1995.
3. Bartold.V.V. Xalil Sulton //Bartold.V.V Asarlar. - M. Nauka, 1964.jild. II, 2-qism: Markaziy Osiyoning individual tarixi-533-534 betlar
4. Usmon Azim dramaturgiyasida dramatik janrlar rang - barangligi. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiyasi. 341-347 betlar.
5. <https://tadqiqot.uz>
6. <https://n.ziyouz.com>